



HISTORY OF MUSEUMS DURING SOVIET RULE

Orif Kamariddinovich Lutfiyev

PhD Candidate

Sharof Rashidov Samarkand State University

Samarkand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: development, people, museum, qualified, specialist, generation, ancestor.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: The best building was allocated for the museum, and the former palaces began to function as museums. The state allocated subsidies, the staff for the museum grew, and funds were allocated from the state budget for collecting collections and forming a fund. Museums entered Soviet society as a novelty. They were opened not for specific individuals, as before, but for the population, the people.

SOVET BOSHQARUVI DAVRIDA MUZEYLAR TARIXI

Orif Kamariddinovich Lutfiyev

Tayanch doktoranti

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: taraqqiyot, xalq, muzey, malakali, mutaxassis, avlod, ajdod.

Annatatsiya: Muzey uchun eng yaxshi bino ajratilib, oldingi saroylar muzey sifatida ish boshladi. Davlat tomonidan subsidiyalar ajratildi, muzey uchun kadrlar yetishib chiqdi, davlat byudjetidan kolleksiyalar yig'ish va jamg'arma shakllantirish uchun mablag' ajratildi. Muzeylar Sovet jamiyati uchun yangilik sifatida kirdi. Oldingiday ma'lum bir shaxslar uchun emas, balki aholi, xalq uchun ochildi.

ИСТОРИЯ МУЗЕЕВ В ПЕРИОД СОВЕТСКОГО УПРАВЛЕНИЯ

Ориф Камариддинович Лутфиев

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова

Докторант (PhD)
Самарканд, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: развитие, народ, музей, квалифицированный, специалист, поколение, предки.

Аннотация: Для музеев были выделены лучшие здания, а прежние дворцы начали функционировать как музеи. Государство предоставляло субсидии, готовило музейные кадры, а также выделяло средства из государственного бюджета для сбора коллекций и формирования фондов. Музеи вошли в советское общество как новшество. В отличие от прежних времён, они были открыты не для отдельных лиц, а для населения, для народа.

Kirish. Davlatimizni mustaqillikni qo'lga kiritilishi iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha jabhalarida bo'lganidek madaniy sohada, shu jumladan, boy o'tmish merosimizni o'rganish, saqlash va uni keng xalq ommasiga targ'ib etish borasida ham tub burilish yasadi. Xalqimiz o'ziga xos taraqqiyot yo'lini tanlab, barcha sohalarda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari darajasiga yetib olishdek ezgu maqsad sari intilmoqda. Uni amalga oshirish uchun yuksak malakali, ahloqiy barkamol mutaxassislar kerak. Shu jihatdan, aqlan yetuk, ahloqan pok va jismonan baquvvat insonlarni tarbiyalash masalasi davlatimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu borada ajdodlarimizning boy ma'naviy, ahloqiy merosining ahamiyati beqiyosdir.

Darhaqiqat, buyuk siymolar bo'lmish ota-bobolarimiz qoldirgan ma'naviy merosni ta'lim-tarbiya sihasiga tatbiq etish jamiyatimizning ahloqan barkamol a'zolarini shakllanishida samarali vositadir. Vatanimiz tarixi, xalqimizning ozodlik uchun kurash yo'li haqida aholining bilimni oshirishda muzeylarning o'rni muhim. Muzeylar tarizimizni o'rganishga, kechagi va bugungi hayotni taqqoslab, jamiyatimiz taraqqiyoti haqida to'g'ri xulosa chiqarishga xizmat qiladi. Sovet bosqaruvi davrida muzey qurilishida katta ishlar olib borildi.

O'zbekistonda muzey ishlarining shakllanishi, rivojlanish tarixi, muzey jamg'armalaridagi materiallar va ekspozitsiyalarni o'rganish burjua olimlari tomonidan o'ylab topilgan, O'zbekiston xalqlari madaniyati qoloq va turg'un xarakterga ega, degan soxta nazariyani puchga chiqaradi. O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shib olinganidan so'ng rus olimlari o'lka tarixini, uning mashhur moddiy va ma'naviy yodgorliklarini tadqiq etishga kirishdilar. Rus olimlari, sharqshunosligi, ilmiy jamiyatlar, ko'hna yodgorlik to'plovchilar, havaskor-kolleksiyachilarning samarali faoliyati tufayli ko'plab moddiy va ma'naviy madaniyat yodgorliklari beiz yo'qolib ketmadi, ular fan va kelajak avlod uchun saqlab qolindi. Turkistonning ilg'or ilmiy jamoatchiligi chor ma'murlarining rasmiy qarashlarigaqarama-qarshi o'laroq, Turkiston xalqlarini feodalizmning g'aflat-jaholat

uyqusidan uyg'otishga intilib, ularning fan va maorifga qiziqishini oshirdi. Madaniy revolyutsiyaning tarkibiy qismi bo'lgan muzey ishi uch tarixiy bosqichni o'tadi. Birinchi bosqich-1917-yildan boshlab 30-yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga olib sotsialistik madaniyatning qaror topishi, shakllanishi hamda g'alabasi bilan yakunlandi. Ikkinchi bosqich-30-yillarning-50-yillarning oxirigacha bo'lgan davrni, ya'ni O'zbekistonda sotsialistik madaniyatning rivojlanishi va gullab-yashnashi bilan farqlandi. 1959-yildan boshlangan uchinchi bosqich sotsialistik madaniy revolyutsiyani yakunlash bilan birga soatsialistik madaniyatning kommunistik madaniyat darajasiga o'sib yetish jarayonini belgilaydi. Ayni paytda O'zbekistonda muzey ishlari taraqqiyoti faqat o'ziga xos fazilatlar va bosqichlarga ham egadir.

1918-yil 5-oktabrda RSFSR Xalq Komissari tomonidan "Madaniy meros obyektlarini asrash, saqlash, himoya qilish" to'g'risida qaror ishlab chiqildi. 1921-yil 31-iyulda TASSR tomonidan "Turkiston Respublikasi aholi va jamiyatga qarashli barcha qadimiy ashyolarni hisobga olish, asrash va saqlash" to'g'risida yangi qonun qabul qilindi .

Muzey uchun eng yaxshi bino ajratilib, oldingi saroylar muzey sifatida ish boshladi. Davlat tomonidan subsidiyalar ajratildi, muzey uchun kadrlar yetishib chiqdi, davlat byudjetidan kolleksiyalar yig'ish va jamg'arma shakllantirish uchun mablag' ajratildi. Muzeylar Sovet jamiyati uchun yangilik sifatida kirdi. Oldingiday ma'lum bir shaxslar uchun emas, balki aholi, xalq uchun ochildi .

Tarjimonlarning ekskursovodlardan farqi shu ediki, muzey bo'limlari bilan tanishtirish emas, balki, eng muhim eksponatlar haqida so'zlab berish, ularning muzey bilan alohida ahamiyatga molik tomonlarini yoritish, tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni berish va insonlarning siyosiy va ijtimoiy harakatining maqsadini tushuntirib berish hisoblangan.

1948-1951-yillarda O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyi xodimlari Samarqandda Ulug'bek rasadxonasini o'rganishdi. Samarqand shahridagi Davlat madaniyat va san'at tarixi muzeyining xodimlari 1935-1970-yilgacha 31-arxeologik ekspozitsiyasida ishtirok etdilar. Ulardan 13 tasi mustaqil ekspozitsiya edi.

1964-yilda KPSS MQ tomonidan "Muzeylar rolini oshirish" to'g'risida yangi qaror qabul qilindi. Muzeylar ochila boshlangandan keyin xalqaro arenalarda ko'rgazmalarda qatnasha boshlandi. Birgina SSSR tarixida 1972-yilda 76 ta ko'rgazma o'tkazildi. Barcha respublikalarda, xususan, O'zbekiston ham o'z eksponatlari bilan qatnashgan. Sovet davri muzeylari boshqa barcha G'arb muzeylaridan farq qilgan, ya'ni xalqqa xizmat qilgan.

1917-1973-yillar oralig'ida muzeylar tarixi boshlandi. Turkistonda fevral voqealariga qadar muzeylar qurilishi harakatlari olib borildi. Sovet davrida muzeylar va binolar qurilishi borasida to'rt tomlik "O'zbekiston SSSR tarixi" misol bo'la oladi.

“Sadoyi Turkiston”, “Turkistanskiy vedemosti”, “Turkiston viloyatining gazetasi”, o‘zbek tilida “Ishchilar dunyosi”, “Sovet O‘zbekiston”, “O‘zbekiston madaniyati”, “Pravda Vostoka”, “Toshkent haqiqati”, “Kechki Toshkent” kabi gazetalarda ekspozitsiyalar, ilmiy adabiyotlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

1-jadval

Muzey	Yil	Ishchilar	Ilmiy bilimga ega ishchilar	Ilmiy-texnika ega ishchilar
Samarqand	1938	41	11	1
	1939	44	10	5
	1940	44	11	33

Muzeylarning zarur ehtiyojlaridan kelib chiqib o‘lkashunoslik muzeylari xodimlari uchun qator tarmoqlar bo‘yicha malaka oshirish imkoniyatlari yaratildi. Bundan tashqari, bosh muzeylar va O‘zSSR madaniyat ministrligi hamkorligida respublikada muzey qurilishiga oid o‘sha vaqtning konkret talablariga xos xilma-xil masalalar muhokamasiga bag‘ishlangan muntazam seminarlar tashkil qilindi. Vaqt muzey faoliyatini jadallashtirish, tarixiy voqea-xodisalarni markscha-lenincha metodologiya nutqayi-nazaridan baholay bilishni talab qilar edi. Bu sharoit taqozasi edi. Mamlakat yorqin kelajak, insoniyatning asriy orzusi-kommunizmni tezroq qurish, uning moddiy-texnika bazasini barpo etish uchun odim tashlardi. Zotan, sovet jamiyati taraqqiyotning ana shu yo‘ldagi har bir bosqichi insoniyat tarixida yangi sahifa ochar edi. Bu taraqqiyot jarayonlarini esa ekspozitsiyalar vositasida, ilmiy-oqartuv va tadqiqot ishlarida yorqin aks ettirish, yoshlarni respublikaning xizmat ko‘rsatgan atoqli namoyondalari faoliyati misolida tarbiyalash zarur edi. Davr talabi bilan buyuk tarixiy voqealar, siyosiy arboblarning va davlat rahbarlarining faoliyati, fan-texnika hamda madaniyat mash‘allari xotirasini xalq qalbida abadiylashtirish uchun vujudga kelgan yodgorlik muzeylari-moddiy va ma’naviy madaniyat durdonalarini asrashning asosiy vositasi bo‘lgan memorial muzeylar tarmog‘i tez rivojlanib kengaya boshladi. 1964-yilda Samarqand shahrida Ulug‘bek muzeyi (1963), Sadridin Ayniy (1964) muzeyi vujudga keldi.

Samarqand viloyatida 1988-yil 1-yanvarda xalq, jamiyat, maktab muzeylari tashkil etilgan. Oqdaryo tumanida “Dagbit” xalq muzeyi 1976-yilda, “Lenin” nomidagi koxozda tarix muzeyi 1973-yilda, “Engels” nomidagi tarix muzeyi 1983-yilda tashkil etilgan. Bulung‘ur tumanida “Fozil Yo‘ldosh” nomidagi tarix muzeyi 1986-yilda ochilgan. Jomboy tumanida “Oktabr” kolxozida tarix muzeyi 1986-yilda, 1983-yilga kelib “Zarafshon” qo‘riqxonasi tarix muzeyi tashkil etilgan.

Ishtixon tumanida “Murodobod” kolxozida tarix muzeyi 1973-yilda ochilgan. Kattaqo‘rg‘on tumanida “Lenin” kolxozida 1979-yilda, “Karl Marks” da 1980-yilda, Y. Oxunboboyev kolxozida 1979-yil, Kattaqo‘rg‘on suv ombori tarix muzeylari 1980-yilda ochildi. Narpay tumanida “Mirbozor” xalq muzeyi 1975-yilda, “Islom shoir” memorial muzeyi 1976-yilda,

“O‘zbekiston” kolxozi mehnat, jangovar shon-sharaf muzeyi 1979-yilda, “Oktabr” kolxozi tarix muzeyi 1983-yilda, “Zirabuloq” stansiyasi temiryo‘l muzeyi va “Oqtosh” shahrida ham tarix muzeylari 1983-yilda tashkil etilgan. Qo‘shrabot tumanida Ergash Jumanbulbul memorial muzeyi 1978-yilda ochilgan. Payariq tumanida 1984-yilda, A. Navoiy kolxozida 1978-yilda, Pirimqul Nurmanov kolxozida 1979-yilda, “Payariq” sovxozida, Kuybishev nomidagi galereyniy muzeyi 1986-yilda tashkil etilgan. Paxtachi tumanida xalq muzeyi 1976-yilda, “Kommunizm” kolxozida 1978-yilda, “Karl Marks” da 1980-yil, “Samarqand” kolxozida 1983-yilda, “Paxtakor” 1984-yilda, Kalinin nomidagi kolxozda 1987-yilda ochilgan. Pastdarg‘om tumani “Lenin” sovxozida Yo‘ldosh Oxunboboyev muzeyi 1979-yilda bo‘lgan. Sovetobod tumani “Ulus” sovxozida tarix muzeyi 1982-yilda tashkil etilgan.

Urgut tumanida “Ilich” kolxozida 1978-yil, “Krupsk” da 1977-yil, “Besh yillik O‘zbekiston” 1980-yilda, “Karl Marks” 1983-yilda, Samarqand viloyati suv xo‘jaligida 1976-yilda tarix muzeyi tashkil etilgan. Kattaqo‘rg‘on shahrida paxta zavod tarix muzeyi 1981-yilda, yog‘ kombinati tarix muzeyi 1976-yil, drammateatr muzeyi 1981-yil, A. Ikromov nomidagi pedagogika o‘quv muassasa muzeyi 1984-yilda tashkil topgan. Samarqand shahrida SamDU tarix muzeyi 1977-yilda, Samselxoz 1979-yilda, Samselxoz qorako‘l 1965-yilda, Samarqand Tibbiyot instituti 1981-yilda, SVAKU avtomobil tarixi muzeylari 1985-yilda tashkil etilgan. Isayeva nomidagi parazitologiya 1966-yilda, Skryabin nomidagi veterinariya muzeyi 1977-yil, qorako‘lchilik muzeyi 1980-yil, Samarqand Ped. Instituti muzeyi 1975-yilda, Kooperativ texnikumi tarix muzeyi 1985-yil, tibbiyot o‘quv muassasalari 1981-yil, SamDU zoologiya muzeyi 1965-yilda, A. Abdurasuleva nomidagi madaniyat muassasasi 1978-yilda, H. Olimjon nomidagi drama teatri muzeyi 1978-yilda, I. Sh. Ibragimov 1983-yil, A. Abdurasulev memorial muzeyi 1978-yil, Orif Gulxaniy 1984-yilda tashkil etilgan. SamPES 1970-yil, “Hujum” fabrikasi 1977-yil, Non kombinati tarix muzeyi 1979-yilda, “Gelion” zavodi 1985-yilda, “8-mart” to‘qimachilik 1984-yilda, Samarqand o‘rmon xo‘jaligi 1985-yilda, Sam. Oziq-ovqat texnikumi 1985-yil, Lift-qurilish zavodi muzeyi 1980-yil, Samarqand go’sht kombinati tarix muzeyi 1987-yilda ochilgan.

Samarqand rayonida 6 ta muzey mavjud bo‘lib, undan 2 tasi kolxoz va 4 ta sovxozdan iborat bo‘lgan. “Moskva” kolxozida mehnat va jangovor shon-sharaf muzeyi 1975-yilda tashkil etilgan. Ekspozitsiya zali 120m² bo‘lib, 600 eksponatdan iborat bo‘lgan. 1985-yilda 2100 kishi tashrif buyurgan, 70 ekskursiya tashkil etilgan. Taxirova Ziyoda muzeyda direktor lavozimida ishlagan; 1980-yilda Engels kolxozining tashkil etilganiga 50 yillik yubiley munosabati bilan tarix muzeyi ochilgan. Muzey ekspozitsiya zali 70m² dan iborat bo‘lib, 500 ta eksponat mavjud bo‘lgan. 1600 kishi tashrif buyurgan, 40 ta ekskursiya tashkil etilgan. Maxmudova G. muzey direktori bo‘lgan. “Bog‘izagon” sovxozida mehnat muzeyi 1980-yilda ochilgan. 95m² dan iborat bo‘lib, 300 eksponat bo‘lib, 1985-yilda 650 kishiga 20 ekskursiya o‘tkazilgan. Rahmatullayev I. direktor

bo'lib ishlagan. SSSR tashkil etilganining 50 yilligi munosabati bilan tarix muzeyi ochilgan. 1981-yilda ochilgan muzey, ekspozitsiya zali 80m² bo'lib, 200 eksponat bo'lgan. 1985-yilda 690 kishi bo'lib, 20ta ekskursiya tashkil etilgan. Xaydarov Barot muzey direktori hisoblangan.

1985-yilda XXV savxoz partiya syezdida tarix muzeyi ochilgan. Maydon 120m² bo'lib, 350 eksponatdan iborat bo'lgan. Keyingi yilda 1100 kishi tashrif buyurib, 4 ta ekskursiya o'tkazilgan. B. Nazarov muzey direktori hisoblangan. "Leninobod" sovxozining tarix muzeyi 1985-yilda tashkil etilgan. 120m² kvadrat bo'lib, 250 ta eksponatdan iborat. 1985-yilda 840 kishi tashrif buyurgan. Muzey direktori Rustamov M. bo'lgan. Yuqorida ko'rsatilgan jamiyat muzeylari qishloq aholisiga kommunistik tarbiyada katta rol o'ynagan. Muzeylarda tashkil etilgan turli-xil tadbirlar sotsialistik munosabatlarni oshirishga yordam bergan. Keyingi besh yillikda "O'zbekiston" va "Lenin Bayroq" kolxozlarida 2 ta muzey ochilishi ko'zda tutilgan.

20-dekabr 1983-yilda Muzey-qo'riqxonada ishida katta ishlar olib borildi. Eksponatlar to'plash viloyat muzeyida xalq va jamiyat ishini yaxshilash olib borildi. Mazkur ish 12 ta muzeylar ustida 2,5 yil ish olib borildi. 62 ta muzeyda passport tashkillashtirilib, muzeylar ro'yxatga olindi.

1986-yil 21-aprelda Samarqand viloyati ijro komiteti tomonidan Samarqand viloyatidagi muzeylar faoliyatini o'rganish va yaxshilash ishlari olib borildi. 1986-1990-yillardan to 2000-yilga qadar Samarqand byurosi sayohat va ekskursiya xizmatini tashkillashtirish ishlari yo'lga qo'yildi. Mazkur yillar 15-apreldan 15-noyabrga qadar barcha arxitektura yodgorliklarida ish vaqtini 9.00 dan 19.00 gacha emas, shahar muzeylarida 9.30 dan 18.00 gacha etib belgilandi.

1978-yilgi muzey ishlarining asosiy ko'rsatkichlaridan, Samarqand-O'zSSR madaniyat va san'at tarixi muzeyida tomoshabinlar soni 701900 kishini tashkil etib, 12724 ta ekskursiyalarni tashkil etgan.

Industrial qurilish, shaklan milliy, mazmunan sotsialistik madaniyatni barpo etish, proletary mafkurasini mustahkamlash, xotin-qizlarni ozod qilish, mehnatkashlarni diniy sarqitlardan xalos etish kabi masalalarda muzeylar rolini konkret belgilab bergan O'zbekiston muzeylari xodimlarining birinchi Respublika konferensiyasi katta o'rin tutadi. Respublika muzeylarini rivojlantirish, ularning tarmoqlarini kengaytirishda partiya va hukumatimizning tarix fanini rivojlantirish hamda maktabda tarix o'qitishni yaxshilash, sovet sotsialistik respublikalariga, avtonom tumanlarda muzey qurilishining axvoli va vazifalari to'g'risidagi qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davr O'zbekiston muzeychiligi faoliyatida muzey shahobchalarining kengayishi, ko'rgazmachilik faoliyatining kuchayishi, keng ilmiy materiallar to'plash asosida sotsialistik qurilish bo'limlarining yaratilishi jihatidan diqqatga sazovordir. O'zbekiston muzeylari o'z ekspozitsiyalarini Respublika xalqlarining tarixida yangi sahifalar ochgan arxeologik ekspeditsiyalar materiallar bilan boyitdi. Arxeologik, antropologik, etnografik va boshqa sohadagi materiallarning to'planishi, umumtarixiy izlanishlarning kengayishi hamda mamlakat o'tmishi

to'g'risidagi bilimlarni jamlash jarayonining tezlashuvi muzey ekspozitsiyalarida o'z ifodasini topdi va ularni markscha-lenincha metodologiya asosida qayta qurish uchun xizmat qildi.

KPCC XX syezdi qarorlarida mafkuraviy ishni hayotga, xalq ehtiyojlariga yaqinlashtirish va mehnatkashlarini kommunistik ruhda tarbiyalash ishiga e'tiborni kuchaytirish zarurligi ta'kidlandi. Materallar yig'ishni jadallashtirish, ekspozitsiyalarni qayta qurish va ularni yangi hujjatlar bilan to'ldirish natijasida O'zbekiston muzeylarining jamg'armalari sovet davriga oid qimmatbaho kolleksiyalar bilan boydii. O'zbekistonda muzey ishlari taraqqiyotining yangi davri 1964-yildan, madaniy revolyutsiyaning yakunlovchi bosqichidan boshlandi. KPSS Markaziy komitetining "Muzeylarning mehnatkashlarni kommunistik ruhda tarbiyalashdagi rolini oshirish to'g'risida" (1964-yil) deb qabul qilgan qarori muzeylar faoliyati uchun keng maydon ochdi, ular oldiga ommani kommunistik ruhda tarbiyalashning ko'rgazmali tashviqot va targ'ibot vositalaridan foydalanish bo'yicha muhim vazifalar qo'ydi. Xalq muzeylari yaratilishi hozirgi davr muzey ishlari taraqqiyotining sifat jihatidan mutlaqo yangi ko'rinishidir. Bunday muzeylar tarmog'ining kengayayotgani hamda o'lkashunislikda qo'lga kiritilyotgan yangi yutuqlar mehnatkashlarni kommunistik ruhda tarbiyalashda muzeylar rolining orta borayotganligini ko'rsatadi. O'zbekiston muzeylari o'z ekspozitsiyalarini takomillashtirish, kolleksiyalarini komplektlashda davom etmoqda, ommaviy ilmiy-oqartuv ishlarning yangidan-yangi shakl-uslublarini izlab topmoqda, sanoat korxonalarini kollektivlari, qishloq mehnatkashlari, maktab o'quvchilari, studentlar, Sovet Armiyasi jangchilari bilan tobora mustahkam aloqa bog'lamoqdalar. O'zbekiston muzeylarining sermahsul va ko'p qirrali faoliyati mamlakatimizda kommunistik qurilish ishiga salmoqli xissa bo'lib qo'shilmoqda. Muzeylar kelajagi-bundan yuz va ming yillardan keyin ham xalqimiz uchun mo'tabar bo'lib qoladigan barcha asl tarixiy va badiiy boyliklarni to'plash, o'rganish, avaylab asrash va ularni keng targ'ib etishdan iboratdir. Muzeylar xalq dahosiga, uning shonli tarixiy o'tmishiga ta'zim qilinadigan dargohdir, shuning uchun ham ular doimo zamon ruhi bilan hamnafasdir.

Xalqimiz qadim zamonlardan beri o'z tarixining shonli sahifalariga oid noyob osori atiqalarini asrab-avaylab keladi. Ulug' insonlar, tabarruk allomalar hamda xalq qahramonlaridan esdalik bo'lib qolgan buyumlar, tarixiy manbalar afsonalarga aylanib, avloddan-avlodga o'tib kelgan. Keyinchalik, masalan, temuriylar davrida saroylarda, boshqa xazinalarda shunday noyob buyumlarni bir joyga to'plab, aziz mehmonlarga namoyish etish odat tusiga kira borgan. Tarixchilarning asarlarida hazrat Sohibqiron Amir Temur vafotidan so'ng uning qurol-aslahalari, sovg'alar va qator harbiy o'ljalari maqbara ichiga qo'yilganligi hamda bu narsalar haqida ziyoratchilarga so'zlab berilganligi qayd etiladi. Maqbaraga qo'yilgan har bir buyum nodir tarixiy va madaniy yodgorlik hisoblanar edi. Sho'rolar davriga kelib muzeylarimiz kommunistik mafkurani targ'ib etadigan siyosiy o'choqlarga aylantirildi.

Mustaqillik tufayli o'zbek xalqi o'z qaddini rostladi, uning xalqaro nufuzi kun sayin ortib bormoqda. Dunyo mamlakatlarining turli millat va xalqlarning O'zbekistonga, o'zbek xalqiga munosabatining o'zgarishi bu – ildizlari asrlar qa'riga, ko'hna tarixiga tutashgan taqdirimizga bo'lgan ehtiromdir. Mamlakatimiz mustaqillik davriga qadam qo'ygandan beri hayotimizning barcha sohalari kabi muzeylar faoliyatida ham katta tarixiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zbekistonning mustaqillikka erishishi iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha jabhalarida bo'lganidek madaniy sohada, shu jumladan, boy o'tmish merosimizni o'rganish, saqlash va uni keng xalq ommasiga targ'ib etish borasida ham tub burilish yasadi. Mustaqillik yillarida diyorimizda bunyod etilgan turli muzeylar shubhasiz ana shu ezgu niyatlarni ro'yobga chiqarish borasida muhim qadam bo'ldi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Mustaqil vatanimizda milliy o'zlikni tiklashga alohida e'tibor berilmoqda. Zero, bizning yurt ajdodlarining tarixda ko'rsatgan buyuk xizmatlarini xolis o'rganish va targ'ib etish alohida ahamiyat kasb etadi. Sobiq sho'rolar davrida faqat «Qizil imperiya» mafkurasiga xizmat qilgan muzeylar endilikda milliy o'zlikni anglashga xizmat qilib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ленинские декреты. 1917-1922. Библиография, М. изд. "Известия Советов депутатов трудящихся СССР", 1974, стр. 146.
2. И. С. Садыкова. Музейное дело в Узбекистане. Академия наук Узбекской ССР музей истории народов Узбекистана им. М. Т. Айбека."Фан" 1975. 11стр.
3. Sodiqova. Madaniy yodgorliklar hazinasi. -T.: Fan, 1995. –B. 42.
4. Т. Н. Кари-Ниязов. Очерки истории культуры Советского Узбекистана. М., Изд-во АН АССР. 1955.
5. Samarqand davlat muzey qo'riqxonasi. 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2316-hujjat. 1987-yil. B.8.
6. Samarqand davmat muzey qo'riqxonasi. 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2316-hujjat. 1987-yil. B.1-4.
7. Samarqand davmat muzey qo'riqxonasi. 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2316-hujjat. 1987-yil. B.8.
8. Samarqand davmat muzey qo'riqxonasi. 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2290-hujjat. B.1-6.
9. Samarqand davmat muzey qo'riqxonasi. 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2290-hujjat. B.1-6..
10. Samarqand davmat muzey qo'riqxonasi. 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2285-hujjat. B.3.
11. Samarqand davmat muzey qo'riqxonasi. 1-jamg'arma, 1-ro'yxat, 2284-hujjat. B.1-8.